



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Muratova Nafisa Baratovna¹

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand, davlat universiteti
Fakultetlararo pedagogika kafedrasи

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXBOROTNI MUSTAQIL IZLASH VA TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalari talabalarida axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlardan o'r ganilgan ma'lumotlar, toplangan tajribalar asosida talabalar mustaqil fikrlashlarini shakllantirishning yo'naliishlari va uni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarning mazmuni va mohiyati olib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborotni izlash, tahlil qilish, mustaqil fikr, individual ta'lif traektoriyasi, kreativ fikrlash, amaliy ko'nikma, tanqidiy fikrlash, tashkilotchilik, kompetensiya, metodika, texnologiya.

I. Kirish. Bugungi kundagi Respublikamizda ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lif traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lif muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Ma'lumki, oliy ta'lif tizimida mustaqil ta'lif soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarni shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon

talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi va bu mavzuni keng qamrovli o'rganishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish ularda ijodiy qobiliyatlarni ustirish uchun avvalambor oliv ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarini iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim sohasining asosiy muammoasi ekanligini biz 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ..." kerakligi alohida ta'kidlanib, bu esa bugungi kunda jahon standarlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasida muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, talabaning mustaqil ishi auditoriya soatiga kirmaganligi sababli ko'pincha talabalar va professor-o'qituvchilar nazaridan chetda qolmoqda. Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakl va usullar, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta'lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning eng kam o'rganilgan muammolaridan biri hisoblanadi, ayniqsa, hozirgi zamon talablari bilan bog'liq holda ta'lim holati (oliy ta'limni diversifikatsiya qilish, ta'lim standartlarini joriy etish, pedagogik monitoring tizimini joriy etish va boshqalar) o'rganilganda bu kabi muammolarni yana bir bor ko'rishimiz mumkin.

II. Adabiyot manbalari haqida umumiylar ma'lumot. Adabiyotlar sharhi. Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlar tadqiqotchilardan L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Polovnikova, P.I.Pidkasisty va boshqalar tamonidan umumiylar didaktik, psixologik, tashkiliy-faoliyat, uslubiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Bu faoliyatning mantiqiy va boshqa jihatlari, ayniqsa, an'anaviy didaktik rejada o'rganilayotgan muammoning ko'p tomonlarini ochib beradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil sinf va sinfdan tashqari bilish

faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalariga alohida e'tibor talab etiladi - o'quvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyatları va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganishni talab etadi.

Mazkur muammo yuzasidan pedagog olimlar M.Ochilov, U.Mahkamov, M.Quronov, F.Yuzlikaev, J.Hasanboev, M.A Choriev, R.X.Djuraev, O'.Tolipov, N.Sayidahmedov, N.Nishonaliev o'quvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish hamda malakali kadrlar tayyorlash masalasini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

Mustaqil fikrlash tushunchasi shaxs sifati ma'nosida O.S.Anisimov (aqliy faoliyat), A.G.Asmolov (fikrning teranligi), Q.Xusanboevalar asarlarida o'quvchi ma'naviyatida mustaqil fikrlashning o'rni tadqiq qilingan. N.Ochilova, M.E.Jumaev, B.R.Djuraevalar o'tkazgan tadqiqot ishlarida talabalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishda fazilatlar, tafakkur hamda fidoyilik masalalari xususida so'z yuritilgan, psixolog olimlar B.Qodirov, E.G'oziev, V.Karimova, Z.Nishanova, B.R.Djuraeva mustaqil fikrlash tushunchalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

III.Metodologiya va emperik tahlil. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilish faoliyatini faollashtirish (M.Ochilov, B.Adizov, U.Mahkamov, M.Mahkamova, R.Mavlonova, N.Azizzodjaeva, R.SH.Ahlidinov, shaxsnинг (kasbiy ta'lim jarayonidagi o'zini-o'zi anglashini K.Davlatov, B.Nazarova, N.Muslimov, I.M.Monaxov, S.Axmadaliev, M.Ochilov, J.G'.Yo'ldoshev, N.Sayidaxmedov, U.Nishonaliev) ishlarida texnologiyalashtirilgan. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish umumiyligi, boshlang'ich va o'rta maxsus kasbiy ta'lim sharoitlarida, oliy ta'lim muassasalarida bilimlarning integratsiyalanishi jarayonida o'rganib chiqilgan.

Hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy hayoti, birinchidan oliy ta'lim olayotgan shaxsdan vaziyatni ko'ra bilish qobiliyati va uquvini, kasbiy muhit sharoitlarida faol harakat qilishni, muvofiq qarorlar qabul qila olishni talab qilsa ikkinchi tomondan, bo'lajak o'qituvchilardan axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishni turli o'quv fanlarini, eng avvalo, tayanch umumkasbiy fanlarni mukammal o'rganishni ijodiy fikrlashini hamda kasbiy faoliyatida ijodkorona yoshdashish kerakligini talab qilmoqda.

Pedagogikada o'qitish, tarbiyalash, fikrni shakllantirish hamda rivojlantirish muammosiga o'quv-biluv va amaliy faoliyatni tashkil etish jarayonida tashqi olamning akslanishi sifatida qaraladi. Bu jarayon shaxsnинг o'zlashtirgan bilimlari va axborotni izlash, tahlil qilish uquv va malakalariga bog'liq ravishda unga o'z rejalarini va jamoat bilan belgilanadigan dasturini muvaffaqiyatli tuzish imkonini beradi. Talabalarning axborotlarni izlash va tahlil qilish hamda mustaqil fikrlashini shakllantirish pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fanlarda o'rganiladigan fikrlashning xususiyatlari va qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Talabalardagi mustaqil fikrlash bilimlarni haqiqiy hayotdan ajralmagan holda dunyonи chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Bunda talabalarda fikrlashdan oldin mavjud bo'lgan g'oya katta ahamiyatga egadir. Har bir yangilikdan oldin g'oya paydo bo'ladi, keyin shu yangilik haqida fikr yuritiladi. Insonning fikri bir joyda turmaydi, u fan, texnika, tibbiyot, qishloq xo'jaligini oldinga qarab harakatlanishga undaydi.

Talabalarda faoliyati davomida har bir mustaqil yechilgan muammo, tuzilgan muammo va muammoni echish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni yengishida xarakter shakllanadi, ijodiy qibiliyatlar rivojlanadi.

Psixologlarning fikriga qaraganda mustaqil fikrlash tushunchasi – murakkab va serqirradir. O‘zining mohiyatiga ko‘ra har bir fikr ijodiydir. Har bir fikr izlanish va yangilikni yaratishdir, uni ommalashtirishga mustaqil harakatdir.

V.A.Kruteskiyning fikricha: «Faol fikrlash», «mustaqil fikrlash» va «ijodiy fikrlash» tushunchalari orasidagi munosabatlarni aylanalar yig‘indisi shaklida ifodalash mumkin. Bunday fikrlashning darajalari turlichadir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mustaqil fikrlash mahsulining o‘ziga xosligi aqliy rivojlanishning sezilarli ta’sir ko‘rsatishi bilan ifodalanadi. Ayrim mualliflar turlicha fikrlashlar yangi muammolarni mustaqil hal etishga, bilimlarni tezlik bilan egallahsga, qulay imkoniyatga undaydi deb hisoblaydilar.

IV. Natijalar. Oliy ta’lim muassasalari mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, ijodkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo’nalishlar bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar negizida
- ta’lim oluvchilarining ongliligi va faolligini oshirish uchun o’qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo’llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o’quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’minlashga e’tibor qaratish;
- ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan tajribali o’qituvchilarining ishlarni ommalashtirish va yosh o’qituvchilar bilan tajriba almashish ishlarni yo’lga qo’ygan holda ishlab chiqish;
- bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan hamda raqamli iqtisodiyot davrida talabalarning axborotlarni izlashga va mustaqil ta’limga oid ma’lumotlarini zamon talablari asosida shakllantirish va rasmiylashtirish yo’llarini yo’lga qo’yish;
- mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo’lga qo’yish;
- talabalarda amaliy muammolarni mustaqil ravishda tuzishi, bajarishi, ijodiy xarakterdagи muammolarni mustaqil echishi, aniq va yashirin jarayonlarning funksional bog‘lanishini tushungan holda bajarishiga imkon yaratish;
- talabalarda mavjud muammo yuzasidan mustaqil fikrini aytalishiga, mavjud muammo yuzasidan yechim topishiga shart-sharoit yaratish va hokozo.

V. Xulosa Yuqorida sanab o’tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo’lga qo’yish, talabalarni axborotlarni izlash, tahlil qilish hamda mustaqil ishslashga o’rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o’z o’rnini topa olish malakasiga ega bo’lgan, istiqboliy vazifalarni qo’yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo’lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosirova, D., & Jalilov, S. (2021). Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari. Jurnal matematiki i informatiki, 1(3).
2. Ziyodullayeva, G. (2020). O'quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish yo'llari. SCIENCE AND EDUCATION, 1(2), 475-479.
3. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lrimda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Monografiya. – T., Fan, 2004. – 168 b. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnikov.- M.:Prosvetlenie.1976.-302 s.
4. Jumaev M.E. O'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini tarbiyalash. T.: Ped. fan. nomz... diss. –T., 1999 yil. 142 b.
5. Baxranovna, R. M. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARIDA QADRIYATLAR ORQALI O 'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASH. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(2), 130-135.